



FARG'ONA VILOYATI QO'QON SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 йил «5» май

126-11-166-Q/22

Қўқон шаҳар ҳокимлиги

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi 190-sonli hamda Farg‘ona viloyat hokimining 2022-yil 26-apreldagi 174-11-O-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash haqida

Shaharda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o‘limga olib kelgan yo‘l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo‘lib, avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, yo‘l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy talablariga to‘liq muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo‘naltirilgan samarali tizimni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish talab etilmoqda.

2022-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 190-sonli, Farg‘ona viloyat hokimining 2022-yil 26-apreldagi 174-11-O-Q/22-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining "mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6,25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin

kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 190-sonli, Farg'ona viloyat hokimining 2022-yil 26-apreldagi 174-11-O-Q/22-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar mamlakatimizda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning dolzarb yo'nalishlari etib belgilanganligi:

avtomobil yo'llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo'l harakati ishtirokchilarining "piyoda - jamoat transporti - velotransport – avtotransport" ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish;

haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilgan holda, o'quv jarayonini sifat jixatidan yangi bosqichga olib chiqish;

haydovchi va piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini oshirish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlash;

yo'l harakati qoidalari asoslarini bolalikdan singdirishni yo'lga qo'yish, ushbu amaliyotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarida joriy etish;

yo'l harakatini tashkil etishni to'liq raqamlashtirish, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda, yangi boshqaruv va nazorat tizimlarini tatbiq qilish belgilanganligi;

Yo'l harakati qoidalariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash hamda ularni takroran buzish holatlarining oldini olish maqsadida 2022-yil 1-dekabrda boshlab quyidagi tartibni nazarda tutuvchi haydovchilarga yo'l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballarini hisoblash tizimi joriy etilganligi:

har bir yo'l harakati qoidabuzarligi uchun 12 oy davomida alohida jarima ballari hisoblab borilishi;

hisoblangan jarima ballari belgilangan miqdordan oshgan hollarda haydovchi ma'lum muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan o'rnatilgan tartibda mahrum qilinishi;

muayyan davr mobaynida yo'l harakati qoidabuzarligi sodir etmagan haydovchilarga keyinchalik hisoblangan jarima ballarini qisqartirish orqali rag'batlantirish choralari qo'llanilishi belgilanganligi;

haydovchilarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish faoliyatini amalga oshiruvchi barcha ta'lim muassasalari (*keyingi o'rinlarda - avtomaktablar*) va imtihon markazlariga faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya Ichki ishlar vazirligi tomonidan berilishi;

avtomaktablarning innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, ularning o'qituvchi, haydovchi-yo'riqchi va murabbiylarini shartnoma asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tomonidan amalga oshirish tartibi o'rnatilganligi;

a) Nukus va Toshkent shaharlari, viloyatlar markazlarida chorrahalarini to'liq raqamli boshqaruv tizimiga o'tkazish bo'yicha shaxsiy mas'uliyat Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari zimmasiga yuklanganligi;

b) Nukus va Toshkent shaharlari, viloyatlar, tuman (shahar)lar markazlarida yo'l belgilari, ko'rsatkichlari va svetoforlarni o'rnatish, yo'l chiziqlarini chizish, piyodalar o'tish joylarini belgilash orqali yo'l harakati vositalarini tartibga solishga ichki ishlar organlari yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari (*keyingi o'rinlarda - yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari*) mas'ul hisoblanishi;

v) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda, shu jumladan davlat-hususiy sheriklik asosida investorlarni jalb qilgan holda, chorrahalarda raqamli boshqaruv tizimini quyidagi davrlarda joriy qilish bo'yicha tashkiliy chora- tadbirlarni belgilanishi:

2023-yil yakuniga qadar poytaxtning barcha chorrahalarida, shuningdek,

Nukus shahri va viloyatlar markazlarining yirik asosiy serqatnov chorrahalarida;

2024-yil yakuniga qadar Nukus shahri va viloyatlar markazlarining barcha chorrahalarida;

g) tuman (shahar) hokimliklariga o'z hududlaridagi avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy-texnik vositalarini o'rnatish huquqi berilganligi, mazkur dasturiy-texnik

vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun jarima summasining 30 foizi bevosita tuman (shahar) mahalliy byudjetiga yo'naltirilishi hamda ushbu mablag'lar yo'l harakatini raqamlashtirish, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, yo'l-patrul xizmati xodimlarining qo'shimcha shtatlarini kiritishga sarflanishi belgilanganligi;

Ichki ishlar vazirligining quyidagi takliflari ma'qullanligi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklarining maxsus ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari hamda Toshkent shahar hokimligining Yo'l harakatini tashkil etish markazini (*keyingi o'rinlarda - ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari*) ikki oy muddatda tegishincha hududiy ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari huzuriga o'tkazish;

ichki ishlar vaziriga yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan malakali xorijiy mutaxassislarni maslaxatchi sifatida shartnoma asosida jalb qilish huquqi berilganligi;

"Uzavtomotobelgi" davlat unitar korxonasida yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ushbu sohada raqobat muhitini shakllantirishi;

Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tuzilmasida Yo'l infratuzilmasini nazorat qilish boshqarmasini, hududiy yo'l harakati havfsizligi boshqarmalari tuzilmalarida yo'l infratuzilmasini nazorat qilish bo'limlarini ichki ishlar organlarining cheklangan shtat birliklari hisobidan tashkil etish belgilanganligi;

2022-yil 5-apreldan boshlab Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" respublika jamg'armasi (*keyingi o'rinlarda - Jamg'arma*) tashkil etilganligi va yo'l harakatini tashkil etish sohasida undiriladigan jarima, olinadigan yig'im va to'lovlarning respublika jamg'armasiga o'tkaziladigan miqdorlari **1-ilovaga** muvofiq belgilanganligi;

avtomobil yo'llarida harakatni tashkil etish, boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha respublika maxsus komissiyasi tarkibi **2-ilovaga** muvofiq, maxsus komissiya to'g'risidagi nizomi **3-ilovaga** muvofiq, Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hududiy maxsus komissiyalarning namunaviy tarkibi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlanganligi;

yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalari maxsus komissiyalarning ishchi organi hisoblash;

ishchi organlar muntazam ravishda tegishli davlat organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarini taxlil qilib boradi va maxsus komissiyalarning yig‘ilishlarida muhokama qilish uchun hujjatlarni tayyorlash;

hududiy maxsus komissiyalar har oyda yo‘llarning holati va mavjud infratuzilma, avariya o‘choqlari, qoidabuzarliklarning tahlilidan kelib chiqib, harakat xavfsizligi, transport va yo‘l sohalariga mas‘ul idoralar rahbarlari faoliyatini tanqidiy o‘rganadi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga muhokama qilish uchun kiritish va natijalari bo‘yicha respublika maxsus komissiyasiga hisobot taqdim etish tartibi o‘rnatilganligi;

hududlarda yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash va bu borada mahalliy hokimiyat organlarining mas‘uliyatini kuchaytirish maqsadida 2022-yil 1-iyuldan boshlab, respublikaning barcha tuman (shahar)lari kesimida “Xavfsiz yo‘l” indeksi (*keyingi o‘rinlarda - indeks*)ni yuritish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi, unda quyidagilar:

indeks doirasida yo‘l infratuzilmasi va yo‘l harakati qoidalariga rioya qilinishining holati maxsus komissiyalar tomonidan **5-ilovaga** muvofiq 29 ta indikator bo‘yicha har chorak yakunida baholab borish;

tuman (shahar)lar indeks ko‘rsatkichlari asosida yo‘llarda harakat havfsizligini tashkil etishning holati bo‘yicha “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratish;

indeksni yuritish vazifasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalari zimmasiga yuklash belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar hokimining o‘rinbosari B.Karimov, shahar Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (A.Axmedov) bilan birgalikda bir oy muddatda transport va piyodalar oqimi, piyodalar bilan bog‘liq sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarining tahlili asosida shahardagi aholi gavjum hududlarda piyodalar o‘tish joylariga piyodalar boshqaradigan svetoforlarni 2023-yil yakuniga qadar o‘rnatilishini nazarda tutuvchi manzilli dasturiga taklif loyahasini ishlab chiqsin hamda viloyat hokimligiga tasdiqlash uchun kiritsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qodiraman.

Qo'qon shahar hokimi



M.Usmanov

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 5 maydagi
126-11-166-Q/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 4-
apreldagi PQ-190-son qarori
bilan tasdiqlangan

Yo‘l harakatini tashkil etish sohasida undiriladigan jarima, olinadigan yig‘im va to‘lovlarning “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” respublika jamg‘armasiga o‘tkaziladigan

MIQDORLARI

T/r	Jarima, yig‘im va to‘lovning nomi	Jamg‘armaga o‘tkaziladigan miqdor (foizda)
1.	Yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalar summasi (davlat ijrochilari tomonidan ijro ishi bo‘yicha undirilgan mablag‘lar bundan mustasno)	5
2.	Avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarligi uchun jarimalar summasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-oktabrdagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasida investitsiyaviy loyihani amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3989-son qarori bilan joriy etilgan loyiha bo‘yicha)	25
3.	Avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma olish va o‘zgartirish uchun yig‘imlar	20
4.	Jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalariga o‘rnatilgan videoregistratorlar, videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari uchun jarimalar summasi	100
5.	Avtotransport vositalari uchun davlat raqami belgilari oshirilgan to‘lov stavkalari bo‘yicha auksiondan olinib, auksionga qo‘yilgan boshlang‘ich narxi bo‘yicha umumiy tartibdagi realizatsiyasidan olingan tushumlar	50

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 5 maydagi
126-11-166-Q/22-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 4-
apreldagi PQ-190-son qarori
bilan tasdiqlangan

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasi

TARKIBI

A.N. Aripov	—	O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, <i>komissiya raisi</i>
P.R. Bobojonov	—	Ichki ishlar vaziri, <i>komissiya raisining o‘rinbosari</i>
I.R. Maxkamov	—	transport vaziri, <i>komissiya raisining o‘rinbosari</i>
A.H. Qo‘ldoshev	—	favqulodda vaziyatlar vaziri
R.Q. Davletov	—	adliya vaziri
A.H. Toshkulov	—	oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri
A.V. Shin	—	maktabgacha ta‘lim vaziri
B.B. Valiyev	—	Bosh prokurorning birinchi o‘rinbosari
O.Z. Nasritdinxodjayev	—	moliya vazirining birinchi o‘rinbosari
A.Sh. Inoyatov	—	sog‘liqni saqlash vazirining birinchi o‘rinbosari
U.U. Sharifxodjayev	—	xalq ta‘limi vazirining birinchi o‘rinbosari
B.T. Abdullayev	—	Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari — Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig‘i
J.T. Maqsudov	—	axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining o‘rinbosari
D.K. Adilov	—	qurilish vazirining birinchi o‘rinbosari
N.N. Oblomuradov	—	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisi
A.A. Abduvaliyev	—	Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi raisi
A.E. Burxanov	—	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori
O.Q. Abduraxmanov	—	Toshkent davlat transport universiteti rektori
A.D. Xadjayev	—	O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
O.Ch. Saidov	—	Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshlig‘i, <i>komissiya kotibi</i>

Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 5 maydagi
126-11-166-Q/22-son qaroriga
3-ilova

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi
PQ-190-son qarori bilan tasdiqlangan

**Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha hududiy maxsus komissiyalarning
namunaviy**

TARKIBI

<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, <i>Hududiy komissiya raisi</i>
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i, <i>Hududiy komissiya raisining o‘rinbosari</i>
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi transport vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalari boshliqlari, <i>Hududiy komissiya raisining o‘rinbosari</i>
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalari boshliqlari
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri o‘rinbosari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari o‘rinbosari va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari — Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari boshliqlari
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasbiy ta‘limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari boshliqlari
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vaziri, viloyat maktabgacha ta‘lim boshqarmalari boshliqlari, Toshkent shahar maktabgacha ta‘lim bosh boshqarmasi boshlig‘i
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlarining birinchi o‘rinbosarlari
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari boshliqlari
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri, viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig‘i
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta‘limi vaziri, viloyatlar xalq ta‘limi Boshqarmalari boshliqlari va Toshkent shahar xalq ta‘limi bosh boshqarmasi boshlig‘i
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmalari boshliqlari
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmalari boshliqlari
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	—	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari rahbarlari

<i>lavozimi bo'yicha</i>	—	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning avtomobil yo'llari bosh boshqarmalari boshliqlari
<i>lavozimi bo'yicha</i>	—	Transport texnikumi (kolleji) direktori
<i>lavozimi bo'yicha</i>	—	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar teleradiokompaniyalari direktorlari
<i>lavozimi bo'yicha</i>	—	Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i, <i>Komissiya kotibi</i>

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 5 maydagi
126-11-166-Q/22-son qaroriga
4-ilova

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 4-
apreldagi PQ-190-son qarori
bilan tasdiqlangan

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasining (keyingi o‘rinlarda — Maxsus komissiya) faoliyatini belgilaydi.

2. Maxsus komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Maxsus komissiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tashkil etiladi va doimiy asosda faoliyat yuritadi.

4. Maxsus komissiya o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

5. Maxsus komissiya tomonidan yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning bajarilishi barcha uchun majburiydir.

6. Maxsus komissiya yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishga va tegishli hisobotlarni tayyorlashga mutaxassislarni, olimlarni, vazirliklar va idoralarning mas‘ul xodimlarini jalb etadi.

2-bob. Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yo‘l harakati xavfsizligi sohasida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini ishonchli himoya qilish, yo‘l infratuzilmasini xavfsizlik talablariga to‘liq javob berishini ta‘minlash;

hududlarda yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini muntazam ravishda baholab borish, ushbu sohada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning manzilli faoliyat ko‘rsatishini nazorat qilish;

yo‘l-transport hodisalari sabablarini chuqur o‘rganish, yo‘llarning xavfli avariya uchastkalari ro‘yxatini tasdiqlash orqali kelgusida ularning oldini olish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan takliflar tayyorlash tizimini yaratish;

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, inson omili va korrupsiya holatlarini istisno etuvchi avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini ommalashtirishga doir tadbirlarni belgilash;

hududlarda yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, yo‘l-transport hodisalarining sonini qisqartirish bo‘yicha dasturlar loyihalari ishlab chiqilishini tashkillashtirish va kelishish.

Maxsus komissiya qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

8. Maxsus komissiya o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq, quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshiradi:

avtomobil yo‘llaridagi yo‘l harakati xavfsizligi ko‘rsatkichlari (yo‘l-transport hodisalari, ularda tan jarohati olgan va halok bo‘lganlar soni) ustidan obyektiv monitoring yuritilishini tashkil etadi;

yo‘l harakati xavfsizligi ko‘rsatkichlari salbiy bo‘lgan hududlarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash doirasidagi qonunchilik ijrosini tahlil qiladi;

yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘lgan hududlardagi aholi yashash punktlari, ta‘lim tashkilotlarida profilaktika va tushuntirish ishlari olib borilishini ta‘minlash yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda yo‘l infratuzilmasi va yo‘l harakati qoidalariga rioya qilinishining holatini har chorak yakunida indeksning indikatorlari bo‘yicha baholab boradi;

indeks natijalariga ko‘ra “sariq” va “qizil” toifalarga kiritilgan tumanlar (shaharlar)da yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish va yo‘l harakati qoidalariga rioya qilinishining holatini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

indeks natijalariga ko‘ra yo‘llarda harakat xavfsizligini tashkil etishning holati bo‘yicha “qizil” toifaga kiritilgan tumanlar (shaharlar) salmog‘i yuqori bo‘lgan viloyatlar hokimlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, Toshkent shahar hokimi)ning mas‘uliyatini oshirish choralari belgilaydi, jumladan, zarur hollarda ularga nisbatan o‘rnatilgan tartibda intizomiy jazo choralari qo‘llanilishini ta‘minlaydi;

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash doirasida ilmiy-tadqiqot institutlari, maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilgan ishlar hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘rganadi va muhokama qiladi;

maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa vazirlik va idoralarning yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasiga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasiga doir dolzarb ilmiy tadqiqot

yoʻnalishlarini belgilaydi;

yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijalari joriy etilishini amaliy qoʻllab-quvvatlaydi;

alohida dolzarb boʻlgan yoʻnalishlarda oʻtkaziladigan ilmiy va tadqiqot izlanishlariga yuqori malakali olim va mutaxassislarni jalb etish hamda bunday tadbirlarni moliyalashtirish masalalarini hal qiladi;

yoʻl-transport hodisasining kelib chiqish sabablarini har tomonlama, ayniqsa, yoʻl uchastkasi va avtotransport vositasining texnik holati, haydovchining malakasi, ob-havo sharoiti kabi muhim omillarni ilmiy nuqta nazardan chuqur tahlil qilish ishlarini tashkil etadi;

Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlarida, shuningdek, yuqori ahamiyat kasb etuvchi yoʻnalishlarda yoʻl harakatini avtomatik boshqarish tizimlari keng joriy etilishini taʼminlaydi;

yoʻl harakati xavfsizligi sohasidagi qonunchilikka rioya etish ustidan nazorat tizimini inson va korrupsiya omillarini istisno etuvchi avtomatlashtirilgan texnik va texnologik vositalar orqali yuritilishini yoʻlga qoʻyishga doir tadbirlarni belgilaydi;

yoʻl harakati xavfsizligini takomillashtirish, shuningdek, yoʻl-transport hodisalarining oldini olish, ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashga moʻljallangan zamonaviy axborot tizimlarini yaratishni tashkil etadi.

3-bob. Maxsus komissiya faoliyatini tashkil etish

9. Maxsus komissiya raisi quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

Maxsus komissiyaning faoliyatiga rahbarlik qiladi;

Maxsus komissiyaning yigʻilishini (sayyor yigʻilishini) chaqirish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi va kun tartibini belgilaydi;

Maxsus komissiya va hududiy komissiyalarning faoliyatini nazorat qiladi;

Maxsus komissiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi yuzasidan komissiya aʼzolarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarni tasdiqlaydi;

mazkur Nizom talablarini bajarmayotgan Maxsus komissiya aʼzolariga nisbatan tegishli choralar koʻradi;

Maxsus komissiya bayonnomalari ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va nazorat qiladi;

Maxsus komissiyaning faoliyatini samarali tashkil etishga oid boshqa funksiyalarni bajaradi.

10. Maxsus komissiya raisining oʻrinbosarlari:

Maxsus komissiya yig'ilishini (sayyor yig'ilishini) tashkil etadi;

Maxsus komissiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari yuzasidan takliflar tayyorlanishini tashkil etadi;

maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda Maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlaydi;

tegishli axborot va takliflarni Maxsus komissiya raisiga kiritadi;

Maxsus komissiya raisi bo'lmaganda yoki uning topshirig'i bo'yicha Maxsus komissiya yig'ilishlariga raislik qiladi;

Maxsus komissiyaning samarali ish olib borishini ta'minlash maqsadida boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

11. Maxsus komissiya a'zolari:

Maxsus komissiya yig'ilishlari (sayyor yig'ilishlari) kun tartibidagi masalalar bo'yicha muhokamalarda ishtirok etadi;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga doir dolzarb masalalar yuzasidan Maxsus komissiyaga takliflar kiritadi;

Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydi;

Maxsus komissiyaning qarorlari va qo'yilgan vazifalarning ijrosi yakunlari to'g'risidagi hisobotni Maxsus komissiya raisiga taqdim etadi;

Maxsus komissiyaning samarali ish olib borishini ta'minlashga oid boshqa funksiyalarni bajaradi.

12. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati Maxsus komissiyaning ishchi organi (keyingi o'rinlarda — Ishchi organ) hisoblanadi.

13. Ishchi organ:

Maxsus komissiya faoliyatining tashkiliy-texnik ta'minotini amalga oshiradi;

ish rejalari loyihalarini tayyorlaydi va Maxsus komissiya muhokamasiga kiritadi;

Maxsus komissiya raisi bilan yig'ilish (sayyor yig'ilish) o'tkazish muddati va joyini, shuningdek, taklif etilganlar ro'yxatini kelishadi, Maxsus komissiya a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni yig'ilish (sayyor yig'ilish) sanasi, vaqti va o'tkaziladigan joyi haqida xabardor qiladi;

Maxsus komissiya yig'ilishida (sayyor yig'ilishida) ko'rib chiqish uchun materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

Maxsus komissiya yig'ilishining (sayyor yig'ilishining) kun tartibidagi masalalar

bo'yicha tahliliy materiallarni tayyorlaydi;

Maxsus komissiya ishining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun zarur bo'lgan axborot va materiallarni maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa vazirlik va idoralardan oladi;

Maxsus komissiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan uning qarorlari loyihalarini tayyorlaydi;

Maxsus komissiyaga yuridik va jismoniy shaxslardan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha tushgan murojaatlarni umumlashtiradi hamda ko'rib chiqish uchun tegishli vazirlik va idoralarga yuboradi;

Maxsus komissiya faoliyatiga oid tasdiqlangan rejalar ijrosini monitoring qilib boradi;

Maxsus komissiya a'zolarining takliflari, shuningdek, mulohazalarini qabul qiladi va tizimlashtiradi;

Maxsus komissiya yig'ilishi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalar nusxalari Maxsus komissiya a'zolari, vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa vazirlik va idoralarga yuborilishini ta'minlaydi;

Maxsus komissiya qarorlari ijrosi monitoringini olib boradi va uning yakunlarini Maxsus komissiya yig'ilishida (sayyor yig'ilishida) ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Maxsus komissiyaning qarorlariga hamda Maxsus komissiya raisi va o'rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

14. Maxsus komissiyaning a'zolari yig'ilish o'tkazilishidan kamida ikki ish kuni oldin yig'ilish (sayyor yig'ilish) o'tkazilish vaqti, joyi va kun tartibi to'g'risida xabardor qilinishi lozim.

15. Yig'ilishni (sayyor yig'ilishni) Maxsus komissiya raisi (rais yo'qligida uning ko'rsatmasi asosida o'rinbosari) olib boradi.

16. Maxsus komissiya a'zolari yig'ilishlarda shaxsan ishtirok etadi. Maxsus komissiya a'zosi asossiz sabablarga ko'ra uch martadan ortiq yig'ilishlarda ishtirok etmagan taqdirda, unga nisbatan Maxsus komissiya raisi tomonidan chora ko'riladi.

17. Yig'ilish kun tartibidagi masalalar bo'yicha qarorlar ochiq ovoz berish orqali ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Maxsus komissiyaning har bir a'zosi, shu jumladan rais ham bitta ovozga ega bo'ladi.

18. Maxsus komissiya yig'ilishda a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda qaror qabul qilish huquqiga ega.

19. Maxsus komissiya yig'ilishlari (sayyor yig'ilishlari) Maxsus komissiyaning ish rejasiga muvofiq, biroq har chorakda kamida bir marta, shuningdek, komissiya vakolatiga tegishli bo'lgan shoshilinch masalalarni ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelganda navbatdan tashqari o'tkaziladi.

Maxsus komissiya yig'ilishlari (sayyor yig'ilishlari) bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

20. Maxsus komissiya yig'ilishlariga (sayyor yig'ilishlariga) ko'rib chiqilayotgan masalalardan kelib chiqqan holda, uning tarkibiga kiritilmagan davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, mahalliy ijro hokimiyat organlari, ilmiy va ta'lim tashkilotlari rahbarlari hamda mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

21. Maxsus komissiya a'zolarining ish samaradorligini baholash mezonlari va ularni rag'batlantirish mexanizmlari, davriyligi hamda moliyaviy manbalari Maxsus komissiya yig'ilishlarida muhokama qilinib, tegishli qaror qabul qilish orqali belgilanadi.

4-bob. Maxsus komissiya qarorlarini qabul qilish va ularning bajarilishini ta'minlash

22. Maxsus komissiya qarorlari uning yig'ilishida (sayyor yig'ilishida) ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Maxsus komissiyaning har bir a'zosi qabul qilinayotgan qaror yuzasidan o'z fikrini yozma ravishda bildirishga haqli.

23. Qarorlarni tezkor qabul qilish maqsadida Maxsus komissiya raisi alohida masalalar yuzasidan Maxsus komissiya a'zolari bilan so'rovnoma o'tkazish orqali qaror qabul qilish huquqiga ega.

24. Maxsus komissiya yig'ilishida (sayyor yig'ilishida) qabul qilingan qarorlar bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnoma rais tomonidan tasdiqlanadi va bir hafta muddatda Maxsus komissiya a'zolari, vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa vazirlik va idoralarga yuboriladi.

25. Maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan Maxsus komissiya a'zolari (a'zosi) tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida o'z takliflari yoki fikrlarini yozma ravishda ishchi organga taqdim etishi mumkin.

26. Maxsus komissiya qarorlarining bajarilishini nazorat qilish ishchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

27. Maxsus komissiya o'tkazilgan yig'ilish yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritadi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

28. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 5 maydagi
126-11-166-Q/22-son qaroriga
5-ilova

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 4-
apreldagi PQ-190-son qarori
bilan tasdiqlangan

**Tumanlar (shaharlar)da yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo‘yicha
“Xavfsiz yo‘l” indeksining**

INDIKATORLARI

I. Yo‘l infratuzilmasi bo‘yicha:

1. Yo‘l qoplamasining holati.
2. Yo‘l belgilari bilan jihozlanganlik darajasi.
3. Yo‘l ko‘rsatkichlari bilan jihozlanganlik darajasi.
4. Piyodalar o‘tish joylarining tartibga solinganligi.
5. Yer osti va yer usti piyodalar o‘tish joylari mavjudligi.
6. Piyodalar yo‘laklari mavjudligi.
7. Velosiped yo‘laklari mavjudligi.
8. Avtoturargohlar bilan ta‘minlanganligi.
9. Yotiq chiziqlarning ahvoli.
10. Yo‘lni ajratuvchi to‘siq bilan jihozlanganligi.
11. Yo‘lning yoritilganligi.
12. Ta‘lim muassasalari atrofining jihozlanganlik darajasi.
13. Ta‘lim muassasalarida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha sinfxonalarning mavjudligi.
14. Ta‘lim muassasalarida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha maydonchalarning mavjudligi.
15. Svetoforlarning mavjudligi.
16. Yo‘l bo‘yining ko‘kalamzorlashtirilganligi.
17. Yo‘naltiruvchi ustunchalar o‘rnatilganligi.
18. Qoidabuzarliklarni aniqlovchi moslamalar bilan ta‘minlanganligi.
19. Videokuzatuv kameralari bilan jihozlanganligi.

20. Sun'iy notekisliklar mavjudligi.
21. Hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarda yo'l harakati qoidalariga rioya etilish holati.
22. Yo'l harakati qoidalarini targ'ibot va tashviqot qiluvchi ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanganlik darajasi.
23. Yo'l harakati qoidalarini targ'ib qilish bo'yicha profilaktik tadbirlarning o'tkazilishi darajasi.
24. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga qonun bilan taqiqlanmagan homiylik mablag'larining jalb etilish holati.

II. Yo'l harakati qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha:

25. Yuz ming aholiga nisbatan yo'l transport hodisalarining soni.
26. Yuz ming aholiga nisbatan yo'l transport hodisalari oqibatida vafot etganlar soni.
27. Avariya o'choqlari soni.
28. Yuz ming aholiga nisbatan yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar soni.
29. Tirband joylar soni.

Izoh: Mazkur indikatorlar bo'yicha tumanlar (shaharlar)da yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash "Xavfsiz yo'l" indeksini yuritishning alohida metodologiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.